

**Koreya XX asr boshida
(Yaponiya mustamlakachilik davri va oqibatlari)**

Mo'minov Muhammadjon Abdukarim o'g'li

O'zbekiston Milliy universiteti
Tarix fakulteti 2- kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Koreya XX asr boshida Yaponiya mustamlakasiga aylantirilishi va uning karaya jamiyatiga tasirini o'rganish va kareya jamiyatining mustamlakachilik davrida tarixiy ongini saqlab qolish hamda yapon mustamlakachilariga qarshi xalq harkatlari, milliy madaniyatni saqlab qolishga bo'lgan urinishlari yoritilgan va ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: "Adolat armiyasi", "Yangban", Lee Wan-yong, Ilchinxve, modernizatsiya, otryad, Iyben, Tonnip, mustaqillik jamiyati.

Koreya yarim oroliga XX asr boshida chet el mustamlakachi davlatlari o'rtasida kurash maydoniga aylanadi. Bu kurashda Yaponiya o'z manfaatlarini ustin qo'yib Koreyada o'z protektaratini o'rnatadi. Bunga 1904-1905 yillarda rus-yapon urushida erishilgan g'alaba bu maqsadlarni amalga oshirishga turtki beradi. Yaponiya mustamlakasi davrida Koreyada yapon boshqaruv tizimi o'rnatiladi. Lekin yapon mustamlakasiga qarsi koreys jamiyati doimiy ommaviy harakatlarni amalga oshirdi. Bu jarayonlar Koreya jamiyatining madaniyatini saqlab qolib yakdillik bilan harakatlanishiga hizmat qildi.

Yaponiya tomonidan Koreyani o'z mustamlakasi qilish yo'lidagi burilish nuqtasi 1904-1905 yillardagi rus-yapon urushi bo'lib, u Uzoq Sharqdagi Rossiya va Yaponiya o'rtasidagi qarama-qarshilikni Yaponiyaning foydasiga hal bo'lishi belgilab berdi. Bu dargacha ham quyidagi voqealar sodir bo'ldi. 1898 yil o'rtalaridan boshlab Koreyadagi Rossiya ta'siri biroz zaiflasha boshladi. Biroq, bu umuman Rossiyaning ushbu mintaqaga qiziqishini yo'qotish degani emas edi. 1900-yilda Seulda Rossiyaning ma'naviy missiyasi ochildi. 1900-yil iyun oyida Koreya imperatorlik sudining "rusparast guruhi" a'zosi Li boshchiligidagi birinchi doimiy Koreya diplomatik missiyasi Sankt-Peterburgga keldi. Rossiyaning Shimoliy-Sharqiy Koreyada telegraf liniyasi qurishga urinishlari 1901-yilda Yaponiyaning qarshiliklari tufayli muvaffaqiyatsiz yakunlanganiga qaramay, Rossiya Amnokkan daryosi havzasida o'rmonlarni kesish uchun juda foydali imtiyozlarga ega bo'ldi.



Xususan, 1901 yilda Rossiya hukumati doiralariga yaqin sanoatchi A. M. Bezobrazov boshchiligidagi Sharqiy Osiyo sanoat kompaniyasi tashkil topdi.

Bu vaqtda Yaponiya Buyuk Britaniya boshchiligidagi bir qator G'arb davlatlarining ko'magida Koreyada tobora kuchayib borayotgan ta'sirga ega bo'ldi. Koreyaning tashqi savdo aylanmasidagi Yaponiya darajasi doimiy ravishda o'sib bordi va 1903 yilga kelib Yaponiyaga eksport qilingan mahsulot 11,5 million iyenaga va Yaponiyadan import 7,6 million iyenaga etdi. Yaponiya pul birligi mamlakatda tobora ommalashib bordi. Temir yo'llar va telegraf liniyalari qurilishi ham asosan yaponlar qo'lga o'tdi. Yangi Koreya armiyasining askarlarini tayyorlash uchun yapon harbiylari taklif qilindi.¹

Koreyadagi mavqeyini mustahkamlash uchun Yaponiya o'sha paytda Sharqiy Osiyodagi vaziyatga ta'sir ko'rsatish uchun potentsial kuchga ega bo'lgan Osiyo-Tinch okeani mintaqasining shimolidagi yagona kuch bo'lgan Qo'shma Shtatlardan yordam olishi kerak edi. Shu sababli, 1905-yil 29 iyulda Yaponiya bosh vaziri Katsura va AQSh prezidenti ma'muriyatining harbiy ishlar bo'yicha kotibi Uilyam Taft o'rtasida og'zaki maxfiy bitim tuzildi, unga ko'ra Amerika Qo'shma Shtatlari Yaponiyaning Koreyadagi manfaatlarini tan oldi, Yaponiya esa Amerikaning Filippin ustidan nazoratini tan oldi.

Natijada Yaponiyaning Koreyaga chuqurroq kirib borishiga yo'l ochgan "islohotlar"ning shoshilinch ravishda amalga oshirilishi, Yaponiya ta'sirining kuchayishini olqishlagan koreyslar qatlamining vujudga kelishi, Yaponiyaning Rossiya bilan urushda yakuniy g'alabasi, AQSHning Koreyadagi Yaponiya siyosatini tan olishi va Yaponiyaning Koreyadagi vaziyat ustidan haqiqiy nazorati - bularning barchasi Koreyada yapon hukmronligini kuchaytirib, yangi shartnoma imzolanishiga olib keldi.²

Koreyanda Yaponiya protektarati o'rnatilishi borasidagi shartnoma 1905-yil 17 noyabrda Seulda imzolangan. Tarixiy adabiyotda yangi shartnoma bir nechta nomlarga ega: "Ikkinchi Koreya-Yaponiya hamkorlik shartnomasi", "5 moddadan iborat shartnoma" yoki "Protektorat shartnomasi". Imperator Kojong, vazirlar mahkamasi rahbari Xan Gyusol va yana ikki vazir Yaponiya maxsus vakili Ito Xirobumi (1841-1909) taklif qilgan shartnomani imzolashtan qat'iyan rad etishdi.

¹ С. О. Курбанов. ИСТОРИЯ КОРЕИ с древности до начала XXI века. – С.-Петербургского университета, 2009. –С. 226-228.

² Jinwung Kim. A history of Korea : from "Land of the Morning Calm" to states in conflict. — USA.: Indiana University Press Bloomington and Indianapolis, 2012. — 338 p.



Bir necha bor Ito Xirobumi Kojong bilan bog'lanishga urindi, biroq Kojong "o'zini yaxshi his qilmayotganini" aytib, muzokara qilishdan bosh tortadi.

1905-yil 17- noyabrda yapon qo'shinlari tomonidan o'ralgan saroyda Ito Xirobumi Yaponiya talablarini qabul qilishga moyil bo'lgan Koreya hukumati besh a'zosini to'pladi va ularni Koreya bo'yicha Yaponiya protektorati shartnomasini imzolashga majbur qildi. Ular orasida tashqi ishlar vaziri Pak Che-Soon (1858-1916), maorif vaziri Li Van Yong (1858-1926) ham bor edi.³

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Koreyada "Iyben" (Adolat armiyasi) va "Tonnikun" (Mustaqillik armiyasi) nomli koreys partizan otryadlari tashkil etilgan bo'lib, o'zlarini hukmdor maqomida ko'rishgan. Partizanlar yapon idoralarini vayron qilib, amaldorlari o'ldirdilar, yapon politsiya va armiyasi bo'linmalariga qarshi jangga kirishdilar. 1906-1907 yillarda yaponlarga qarshi turli provinsiyalarda Xon Bom Do, Min Jonsik, Chxve Ikxyon, Sin Dolsok, Kim Sonyun va boshqalarning otryadlari jangovar harakatlar olib borgan. Imperatorni taxtdan ag'darib, koreys armiyasi tarqatib yuborilgandan so'ng, yapon istilosiga qarshi qurolli harakatlarning yangi to'liqini alanga oladi. 1907- yil iyulda Vonju shahri garnizoni qo'zg'aldi. Uning asosida tashkil etilgan otryad qator uyezdlarda harakat qildi. Avgustda Kanxvado oroli soldatlari ko'tarildi. Harbiylar o'rtasidagi g'alayon Koreyaning ko'plab shaharlarida bo'lib o'tdi. Harbiylarning bir qismi partizanlik urushini olib bordi. Yil so'ngida qo'zg'olonchilik harakatlari barcha provinsiyalarni qamrab olgan.⁴

Agar 1907 – yilda yapon qo'shini va jandarmeriyasi partizanlik otryadlari bilan 322 ta jangda ishtirok etgan b'lsa, 1908 yilda bunday janglar 1451 tagacha (bunga kichik to'qnashuvlar kirmagan) sodir bo'ldi.

Koreyadagi yapon bosqinchilari Koreya mavzusidagi rasmlarni yo'q qilish, koreys san'ati maktablarini yopish va qolgan sanoqli rassomlarni yaponcha mavzularni yapon uslubida bo'yashga majburlash orqali Koreyadagi mahalliy xalqlarning san'atini bostirishga jamlangan urinishganligini tushunish muhimdir. Maqsad koreys san'atini yapon san'atiga aylantirish edi.

1907 yil iyun oyida Koreya imperatori Kojong ikkinchi Gaaga konferentsiyasiga yashirincha elchilar yubordi. Vakillar Koreya diplomatik vakolatxonasini tiklash bo'yicha murojaatni taqdim etdilar. Biroq, ular o'z missiyasini bajara olmadilar, chunki buyuk davlatlar ularni konferentsiyada qatnashishga ruxsat bermadi.

³ С. О. Курбанов. ИСТОРИЯ КОРЕИ с древности до начала XXI века. – С.-Петербургского университета, 2009. –С. 229-231.

⁴ Xan V.S. Koreya tarixi. — T.: Baktria Press, 2013. — 100 b



Kjong elchilarga topshirgan shaxsiy xabarida aytgan da'volari quyidagicha:

1. Men 1907-yil 17-noyabrda Yaponiya kamissari Ito Xirobumi va Pak Che-Soon tomonidan imzolangan shartnomani (Yaponiya-Koreya protektorati shartnomasi) hech qachon ma'qullamaganman va unga davlat muhrini ham qo'yganim yo'q.
2. Men Yaponiyaning Shartnomani men bilan maslahatlashmasdan tarqatishiga qarshi chiqdim.
3. Men mustaqil Koreya imperiyasining huquqlarini boshqa hech bir xalqqa topshirmaganman.
4. Diplomatik huquqlar bilan bog'liq keraksiz shartnoma meni majbur qildi; Men Koreyaning ichki ishlariga tegishli hech qanday bandni tan olmadim.
5. Men Koreyada general-rezidentni joylashtirishga ruxsat bermaganman va chet elliklarga imperator huquqlarimdan foydalanishga ruxsat bermaganman.
6. Umid qilamanki, dunyo xalqlari Koreyaning diplomatik huquqlarini himoya qilish uchun men bilan birlashadi.

Kjongning qilgan ishidan Yaponiya g'azablendi. Koreya Vazirlar Mahkamasi ham uning mas'uliyatsiz xatti-harakatiga qarshi chiqdi va undan taxtdan voz kechishni talab qildi. Kjongning xiyonatidan g'azablangan Ito Xirobumi Vazirlar Mahkamasining qarorini qo'llab-quvvatladi. Kjong taxtdan voz kechishga majbur bo'ladi.⁵

1909-yil yozidan 1910-yilga qadar Yaponiya Koreyani bosib olish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirdi. Koreys sudlari o'rniga yapon sud tizimini joriy qildi, politsiya tarqib yuborildi. Koreyaga kochup o'tuvchi yoponlarga katta imtiyozlar berildi va 1910 yilda yil oxirigacha Koreyaga ko'chib o'tgan yaponlar soni 210 ming nafatni tashkil etdi. 1909-yil 4-dekabrda Yaponiya tarafdorlari tashkiloti - "Ilchinxve" raisi Li Yon Gu imperatorga va hukumatga hamda yapon bosh rezidentiga Koreyaning Yaponiyaga qo'shilishi to'g'risidagi iltimosnoma bilan murojaat qiladi.⁶

1910-yilning bahorida Sone Araske sobiq harbiy vazir Terauti Masatake bilan almashtirildi. 1910-yil 22-avgustda Yaponiya-Koreya anneksiyasi to'g'risida shartnoma tuzildi. shartnomaga ko'ra, o'z suverenitetini yo'qotdi va Yaponiyaning

⁵ A NEW LOOK AT THE ANNEXATION OF KOREA.- Society for the Dissemination of Historical Fact. 201-. — 55-56 p.

⁶ Xan V.S. Koreya tarixi. — T.: Baktria Press, 2013. — 102 b



general-gubematorlik ko'rinishidagi mustamlakasiga aylandi. Ko'p o'tmay, general-gubernatorlik "Ilchinxve" tarqatib yuborishni buyurdi.⁷

Anneksiya deklaratsiya bilan emas, balki shartnoma orqali amalga oshirilgan. Shartnoma bandlari quydagicha belgilangan:

1-modda. Koreya imperatori janobi oliylari Yaponiya imperatoriga butun Koreyadagi barcha suverenitet huquqlarini to'liq va doimiy ravishda topshiradi.

2-modda. Yaponiya imperatori janobi oliylari shartnomani qabul qiladi va Koreyaning Yaponiya imperiyasiga to'liq qo'shilishiga rozilik beradi.

3-modda. Yaponiya imperatori janobi oliylari imperator va sobiq imperatorga hamda Koreya valiahd shahzodasiga hamda ularning turmush o'rtoqlari va merosxo'rlariga o'zlarining tegishli martabalariga mos keladigan unvonlar, qadr-qimmat va sharaflar hamda yetarli yillik grantlar ajratadi.⁸

Koreya-Yaponiya anneksiyasi shartnomasi Yaponiyaning Koreyadagi hukmronligi jarayonini yakunlabgina qolmay, Choson sulolasining halokatini ham xabar qildi. Xalqning noroziligi va qattiq qarshiliklariga qaramay, Koreya Yaponiya imperiyasining mustamlakasiga aylandi. Anneksiyadan keyin yaponlar 35 yillik mustamlakachilik davrini boshladilar, bu zamonaviy Koreyaning shakllanishiga chuqur ta'sir ko'rsatdi.

Yaponlarning Koreyani bosib olinishi modernizatsiya jarayoniga to'sqinlik qildi, xuddi mamlakat o'z-o'zidan boshlangan islohotlarni amalga oshirish uchun qadamlar qo'ymoqda. Yaponiyaning Koreyaga nisbatan siyosatini ma'qullagan ba'zi tarixchilarning ta'kidlashicha, mustamlaka davrida Koreyaning iqtisodiy va ta'lim tizimida sezilarli yutuqlarga erishilgan. Ularning ta'kidlashicha, Yaponiya istilosi uzoq muddatda Koreyani modernizatsiya qilish uchun foydali bo'lgan. 1910-yildan 1945-yilgacha iqtisodiy taraqqiyotning ma'lum darajada bo'lganligini inkor etib bo'lmasa-da, asosiy foyda oluvchilar yaponiyaliklar va bir qator koreys hamkorlari edi. Koreya aholisining aksariyati qashshoqlik va savodsizlik holatiga tushib qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Курбанов С. О. История Кореи: с древности до начала XXI в. — СПб.: университета, 2009. — 537 с
2. Michael J. Seth. A history of Korea : from antiquity to the present.- USA.:Rowman & Littlefield Publishers, 2011. — 597 p.

⁷ С. О. Курбанов. ИСТОРИЯ КОРЕИ с древности до начала XXI века. — С.-Петербургского университета, 2009. -С. 231-233

⁸ <http://www.international.ucla.edu/eas/documents/kore1910.htm>



3. Jinwung Kim. A history of Korea : from “Land of the Morning Calm” to states in conflict. — USA.: Indiana University Press Bloomington and Indianapolis, 2012. — 709 p.
4. Хан V.S. Koreya tarixi. — Т.: Baktria Press, 2013. — 135 b.
5. Ванин Ю. В. Корейская война (1950-1953) и ООН. М., 2006
6. История Кореи (Новое прочтение) / Под ред. А. В. Тор- Кунова. – М.: МГИМО, РОССПЭН. 2003.
7. История Кореи (с древнейших времен до наших дней). В2-х томах. – М.: Наука. 1974.
8. Grayson, James Huntley. Korea: A Religious History. New York: Oxford University Press, 1989.
9. <https://www.koreanculture.org/korea-information-culture-and-the-arts>
10. <http://www.international.ucla.edu/eas/documents/kore1910>

